

# **SOVET DAVLATINING 1953–1991-YILLARDAGI QATAG‘ON SIYOSATI: O‘ZBEKISTON MISOLIDA**

**Dilshodbek Ilxomjon o‘g‘li XOMIDOV**

katta o‘qituvchi

Qo‘qon universiteti Andijon fililali

Andijon, O‘zbekiston

## **Annotatsiya**

Maqolada Sovet davlatining 1953–1991-yillardagi qatag‘on siyosati va uning O‘zbekiston aholisiga nisbatan amalga oshirilishi masalasi yoritilgan. Asosan 1937–1938-yillardagi “Katta terror” hamda 1940–1950-yillardagi qatag‘onlar o‘rganilgan bo‘lsa-da, maqolada mustaqillik yillarida deyarli tadqiq etilmagan keyingi davr qatag‘onlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek 1953–1991-yillarda “sovetlarga qarshi targ‘ibot va tashviqot” aybi bilan jazoga tortilgan o‘zbekistonlik shaxslar haqida aniq ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari milliy mustaqillik g‘oyalari, sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi fikrlar, diniy va milliy harakatlar sababli ta’qib qilingan shaxslar faoliyati yoritilib, Sovet davlatining qatag‘on siyosati Stalin vafotidan keyin ham to‘xtamagani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** qatag‘on siyosati, sovetlarga qarshi targ‘ibot, milliy mustaqillik, O‘zbekiston SSR, qatag‘on qurbonlari.

# **РЕПРЕССИВНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В 1953–1991 ГОДАХ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА**

**Дилшодбек Илхомжон угли ХОМИДОВ**

Старший преподаватель

Андижанского филиала Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

## **Аннотация**

В статье рассматривается репрессивная политика Советского государства в 1953–1991 годах и особенности её осуществления в отношении населения Узбекистана. Если в годы независимости основное внимание исследователей было уделено репрессиям периода «Большого террора» 1937–1938 годов, а также 1940–1950-х годов, то в данной статье на основе научных источников анализируются репрессии последующего, практически не изученного периода. В работе приводятся конкретные сведения о гражданах Узбекистана, подвергшихся наказанию в 1953–1991 годах по обвинению в «антисоветской агитации и пропаганде». Освещается деятельность лиц, преследовавшихся за выдвижение идей национальной независимости, критику советской колониальной политики, а также за участие в религиозных и национальных движениях. Научно обосновывается вывод о том, что репрессивная политика Советского государства не прекратилась и после смерти И.В. Сталина.

**Ключевые слова:** репрессивная политика, антисоветская пропаганда, национальное движение, Узбекская ССР, жертвы репрессий.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022-yil 31-avgust Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrif buyurganida qatag‘on qurbonlarini aniqlash va xotirasini tiklash bo‘yicha izlanishlarni davom ettirish kerakligini ta’kidlab “butun dunyoda bir parcha qog‘oz bo‘lsayam, qancha mablag‘ ketsayam, o‘zbek millatiga daxldor hujjatlarni topinglar, deb topshiriq bergandim, oxirgi yillarda yana qancha qatag‘on qurbonlari aniqlandi” [1] deb alohida ta’kidlagab, biz tarixchilar oldiga mas’uliyatli vazifalarni qo‘ygan edi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mustaqillik yillarida Sovet davlatining qatag‘on siyosati bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar, hujjatlar to‘plamlari e‘lon qilingan bo‘lsada, ularda asosan 1937–1938-yillardagi “Katta terror” va 1949–1953-yillardagi ziyolilarga nisbatan amalga oshirilgan qatag‘on, bundan tashqari “Paxta ishi” hamda “O‘zbek ishi” bilan bog‘liq qatag‘onlar atroflicha o‘rganilgan. Bugungi kungacha Sovet davlatining 1953–1991-yillardagi qatag‘on siyosati haqida ma’lumotlar deyarli yo‘q.

Faqatgina 2000-yilda nashr qilingan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Ikkinchi kitob”da Mirtemir Mirabdullaevning qatag‘on qilinganligi haqida mana bu ma’lumot keltirilgan: “Mirabdullaev o‘tgan asrning 60-yillarida, ToshDUning siyosiy iqtisod kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritayotgan vaqtida mamlakat ozodligi harakati tashabbuskorlari bo‘lgan hammaslamlari bilan «Ozod uyushma» tashkilotini tuzgan.

Uyushma a‘zolari O‘zbekiston SSSRdan ajralib chiqishi va mustaqil davlat barpo qilish, o‘zbeklar boshqalarning yordamisiz ham o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishga, mamlakatni o‘zlari boshqarishga qodir, degan g‘oyaga asoslangan edi. Lekin «Ozod uyushma» oyoqqa turmasdan, uning tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Mirabdullaev qamoqqa olinadi va 1971-yil 31-avgust oyida Toshkent shahar sudi tomonidan unga O‘zSSR JK 64-moddasiga asosan «millatchi» tamg‘asi bosilib, jinoiy javobgarlikka tortiladi hamda 3 yilga qamaladi. Faqat O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng adolat qaror topib, 1992-yil bahorida Mirtemir Mirabdullaev oqlangan” [2;519].

Mirtemir Mirabdullaev 2018-yil 20-mart kuni vafot etgan [3].

Ko‘rinib turibdiki, milliy tarixshunosligimizda Sovet davlati siyosatidan noroziligi uchun 1953–1991-yillarda jazoga tortilganlar haqida ma’lumot juda oz. Quyida yuqorida qayd etilgan bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilamiz.

Sovet davlatining qulashi natijasida arxivlarda saqlanayotgan ko‘plab mahfiy hujjatlar ilmiy iste’molga kiritildi. Ulardan biri – « *Россия. XX век. Документы* » kitoblar to‘plamida Rossiya imperiyasi, Sovet Rossiyasi, SSSR va Rossiya Federatsiyasining XX asrdagi ichki va tashqi siyosatiga oid arxiv hujjatlari to‘plam holida nashr qilingan. To‘plamga 1997-yilda akademik A.N. Yakovlev asos solgan. 2010-yilga kelib to‘plam 64 kitobdan iborat bo‘lgan.

Ular orasida “58/10. Надзорные производства Прокуратуры СССР по делам об антисоветской агитации и пропаганде. Март 1953–1991 гг. Аннотированный каталог” [4] kitobida O‘zbekiston tarixiga oid ma’lumotlar ham ko‘p uchraydi.

Kitobga asos bo‘lgan hujjatlar Rossiya Federatsiyasi Davlat arxivida saqlanayotgan P-8131 – Прокуратура СССР. 1924–1991 fondidagi 31 va 36-ro‘yxat yig‘ma jildlar, hamda P-9474 – Верховный Суд СССР fondidagi. 39, 40, 41-ro‘yxat yig‘majildlardagi ma’lumotlar asosida jamlangan. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi Hujjatlarni o‘rganish va nashr etish markazi xodimlari 70 mingdan ortiq yig‘majildlarni o‘rganib chiqib ular orasida 1953–1991-yillarda davlatga qarshi jinoyatlarda ayblanib Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-qismi bilan ayblangan shaxslarga oid ma’lumotlarni ajratib chiqqanlar.

SSSR Ministrlar Soveti qoshidagi Davlat xavfsizlik xizmati bergan ma’lumotlarga ko‘ra 1957–1985-yillarda sovetlarga qarshi targ‘ibotda ayblanib 8124 nafar odam jazoga tortilgan. Kitobda esa 2955 yakka va 531 guruh (bir guruhda o‘rtacha 3.6 ta odam bor deb hisoblanganda tahminan 1900 nafar odam) ishtirokidagi jinoyat ishlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar jamlangan. Kitob mualliflari ayblanuvchilardan 60%i, ya’ni 4855 nafar odam isyonchilik ruhidagi axborotlarni tarqatganlik kabi jinoyatlarni sodir etganini qayd etganlar [4].

Yuqorida qayd etilgan kitobdagi O‘zbekistonlik yoki millati o‘zbek bo‘lganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarjima qilgan holda sovet davlati

mustamlaka siyosatiga qarshi chiqib qatag'on qilingan 40 nafar ajdodlarimizga oid 23 jinoyat ishi doirasidagi ma'lumotlarni aynan keltirmoqdamiz:

1. *Jo'raev X.M.* – 1911-yilda tug'ilgan, tojik, Samarqand shahridagi quruvchilar o'nboshilar maktabi direktori, 1952-yilda "ruslar musulmonlarni yomon ko'radi, shuning uchun frontdagi o'zbeklar va tojiklar asirga tushishgan" deb aytgan, erkaklar va ayollarning teng huquqliligini tanqid qilgan, odamlar orasida Stalinga nisbatan behayo so'zlarni aytgan. 1953-yil 10-aprelda jazoga tortilgan, 1955-yil 13-iyunda reabilitatsiya qilingan.

2. *Aleksandrov N.I.* – 1923-yilda tug'ilgan, rus, ma'lumoti 3-sinf, ikki marta sudlangan, mahbus, jazoni O'zbekistonda o'taydi, 1952-yil 18-noyabrda siyosiy suhbat chog'ida "Rossiyada imperiya davrida jinoyatchilik kamroq edi, chunki xalq o'sha paytda yaxshiroq yashar va hech narsaga muhtoj emas edi" degan. 1953-yil 16-aprelda jazoga tortilgan.

3. *Otabolaev A.* – 1910-yilda tug'ilgan, o'zbek, kolxozchi, Stalinobod tumanida yashagan, 1953-yil 8-martda qishloqda yig'layotgan qo'shnisini ko'rib, masxaraomuz ohangda: "Yig'lashga juda yaxshi bahona topibsizlar-da" degan va shundan so'ng marhum rahbar haqida haqoratli so'zlar ishlatib, "Nega u 15 yil oldin emas, endi o'ldi? Agar o'shanda o'lganida, bizda bu kolxozlar bo'lmasdi, hozirgiday emas, ancha yaxshiroq yashar edik. Undan ham yaxshiroq odamlar o'ladi, ammo ularga hech kim yig'lamaydi, uning kabi insonlar esa ... (hayvonlar kabi) o'lim topsin" deya yana bir qator haqoratli so'zlarni ishlatgan. 9-mart kuni esa Stalinobod shahridagi Qizil maydonda motam mitingida, artilleriya salyuti boshlanganda: "Otaveringlar, uning tobuti ham, suyaklari ham qolmasin, hozir biz azob chekayotganimizdek qiynalib ketsin," dedi. 1937-yildan boshlab suhbatlarda sovet tuzumiga qarshi fikrlar bildirgan. 1953-yil 23-mayda jazoga tortilgan.

4. *Mirzoev A.* (1910-yilda tug'ilgan, o'zbek, oliy ma'lumotli, Namangan shahridagi maktab direktori) va *Xoliqov A.* (1900-yilda tug'ilgan, o'zbek, diniy ulamo oilasidan, o'rta ma'lumotli, o'qituvchi) 1946-yilda "o'zaro jinoiy aloqaga kirishib", sovet voqeligini tanqid qilishgan: xo'jalik va ijtimoiy hayotning ayrim masalalarini, xalqaro vaziyatni muhokama etishgan, mamlakatdagi moddiy

turmush sharoitidan norozi bo'lishgan, xalq yomon yashayotganini, inqilobdan avvalgi davrda ancha yaxshi bo'lganini aytishgan. Narx-navoning pasayishidan foyda yo'qligini, chunki do'konlarda mahsulotlar yetarli emasligini ta'kidlashgan. Inqilobdan avval odamlar 100 yilgacha umr ko'rgan bo'lsa, sovet hokimiyati davrida 50 yildan ortiq yashamasligini aytishgan. Amerika tartiblarini maqtab: "Amerikada ziyolilar piyoda yurmaydi, mashinada yuradi. Agar piyoda yurishga to'g'ri kelsa, oyoqlariga masofa o'lchagich osib, bosib o'tgan yo'lini hisoblab boradi va buning uchun maosh oladi", – deyishgan. 1953-yil 30-iyunda jazoga tortilib, 1957-yil 16-yanvarda reabilitatsiya qilinganlar.

5. *Qambarov Z.* (1917-yilda tug'ilgan, o'zbek, O'sh shahri), *Hojimutdinov T.* (1904-yilda tug'ilgan, o'zbek, 1936-yilda sudlangan, muayyan kasbi yo'q, O'sh shahri), *Ermatov A.* (1890-yilda tug'ilgan, o'zbek, kolxozchi, Jalolobod viloyati Achin tumani), *Ismoilov T.* (1914-yilda tug'ilgan, o'zbek, ilgari sudlangan, jazoni o'tamagan, kolxozchi) 1925–1935-yillarda bosmachilik harakatining sobiq ishtirokchilari orasida faoliyat yuritgan va "Qodiriya" tariqatining faol a'zolari bo'lishgan, guruh rahbari 1935-yilda qamoqqa olingan. Tashkilot a'zolari o'zlarini "sochli eshon" izdoshlari deb atashgan, Qirg'iziston va O'zbekiston bo'ylab kezib yurishgan, targ'ibot olib borishgan, tashkilotga yangi muridlarni jalb qilishgan. Tashkilot rahbarlari 1952-yilda qamoqqa olingan. 1953-yil 12-avgustda jazoga tortilganlar.

6. *To'raev T.* (1893-yilda tug'ilgan, o'zbek, diniy ma'lumotga ega, kolxozchi, Andijon viloyati Baliqchi tumani), *S. Rahimov* (1883-yilda tug'ilgan, o'zbek, diniy ma'lumotga ega), *M. Mirzajonov* (1880-yilda tug'ilgan, o'zbek, diniy ma'lumotga ega) noqonuniy diniy faoliyat, an'anaviy milliy davolash usullari (tabiblik) bilan shug'ullanganlar. 1954-yil 13-yanvarda jazoga tortilganlar.

7. *Sarimsoqov A.* – 1932-yilda tug'ilgan, o'zbek, O'rta Osiyo politexnika instituti talabasi, Toshkent shahrida yashagan, 1947-yildan millatchilik ruhidagi she'rlar yozgan, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davridan oldingi davrni o'zbek xalqi uchun "oltin davr" deb hisoblagan; 1949-yildan sovet davlat tuzumini

ag‘darib tashlash va O‘zbekiston hududida milliy davlat tuzishga chaqiruvchi anonim xatlar tarqatgan. 1954-yil 19-fevralda jazoga tortilgan.

8. *Jo‘raev M.* – 1927-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, ma‘lumoti to‘liqsiz o‘rta, Andijon shahrida yashagan, “tez orada yorug‘ kunlar keladi, amerikaliklar tez orada atom urushini boshlab, sovet davlatini parchalab tashlaydi, biz yo o‘lamiz, yo kommunistlarsiz yaxshi hayotni ko‘ramiz, yoki yaqin kunlarda O‘zbekistonda ham Vengriyadagi kabi voqealar amalga oshib sovet davlatini ag‘darib tashlaymiz” deb aytgan. 1957-yil 19-iyunda jazoga tortilgan.

9. *Yunusov A.Z.* – 1930-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, O‘rta Osiyo Politehnika instituti talabasi, Toshkent shahrida hibsga olingan, 1954–1956-yillarda institut talabalari va o‘qituvchilari orasida SSSRda millatlarning teng huquqliligi yo‘qligini, ruslar o‘zbeklarga o‘qishga imkon bermayotganini aytgan. 1957-yil 13-iyulda unga nisbatan ochilgan jinoyat ishi tugatilgan.

10. *Vaqqosov A. (ayrim hujjatlarda Vasqosov)* – 1913-yil tug‘ilgan, o‘zbek, ma‘lumoti o‘rta, Andijon viloyati, Namangan shahrida yashagan, bir necha yillar davomida turli xalqaro va sovet tashkilotlariga sovetlarga qarshi va millatchilik ruhidagi maktublar yozgan. 1958-yil 20-fevralda jazoga tortilgan.

11. *Omonov D. (ayrim hujjatlarda Omonqulov)* – 1912-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, Samarqand shahrida mast holda hukumat rahbarlarini uyatsiz so‘zlar bilan so‘kkan. 1958-yil 26-fevralda jazoga tortilgan.

12. *Grishchenko L.I.* – 1898-yilda tug‘ilgan, yahudiy, ma‘lumoti o‘rta, KPSS a‘zosi, urush qatnashchisi, ordenlar bilan mukofotlangan, O‘zbekiston SSR To‘qimachilik sanoati vazirligi xodimi, Toshkent shahrida hibsga olingan, 1951-1956-yillarda SSSRda matbuot erkinligi yo‘qligini, saylovlar soxta ekanligini aytgan, Isroilning Misrga qarshi urushini oqlagan, “Bi-Bi-Si” radiosi eshittirishlari mazmunini odamlarga aytib bergan, Stalin qatag‘onlari, yozuvchi Fadeevning o‘z joniga qasd qilishi va boshqalar haqida gapirgan, siyosiy latifalar aytib bergan. Unga nisbatan 1958-yil 18-aprelda jazoga tortilgan, 1959-yil 19-dekabrda reabilitatsiya qilingan.

13. *Boznyakov A.A.* – 1926-yilda tugʻilgan, rus, maʼlumoti 8-sinf, muqaddam sudlangan, Toshkent viloyati, Angren shahri, shaxta ishchisi, Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga Xrushchevning gazetadan qirqib olingan fotosuratlariga haqoratli yozuvlar bitilgan ikkita anonim xat yoʻllagan. 1958-yil 15-sentabrda jazoga tortilgan.

14. *Mamadaliev A.* – 1914-yilda tugʻilgan, oʻzbek, savodli, diniy ulamo oilasidan, urushda asir tushgan va “Turkiston legioni”da xizmat qilgan, muqaddam 58-modda bilan sudlangan, kolxoz iqtisodchisi, mulla, Andijon viloyatida yashagan, SSSRdagi yomon hayot haqida gapirgan, sovet tuzumini fashistik tuzum deb atagan, kolxoz tuzumini qoralagan, kapitalistik mamlakatlardagi hayotni maqtagan (masalan, SSSRda yoʻllar loy va chang, gʻarbda esa asfaltlangan degan). 1961-yil 29-dekabrda jazoga tortilgan.

15. *Abdugʻafforov Sh.* – 1935-yilda tugʻilgan, oʻzbek, Samarqand shahrida yashagan, 1962-yil 19–23-fevralda shahar markazidagi afisha va stendlarga Xrushchevga nisbatan "tuhmat" yozgan. 1962-yil 9-iyunda jazoga tortilgan.

16. *Bagirov T.A.* – 1906-yilda tugʻilgan, tojik, maʼlumoti oliy, viloyat ijroiya qoʻmitasi sanoat boshqarmasi boshligʻining sobiq oʻrinbosari, Toshkent shahrida yashagan, 1962-yil fevral–mart oylarida Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashi va Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Qoʻmitasiga, nusxasini “Pravda” gazetasiga yoʻllagan holda ikkita anonim xat yozgan, xatlarda mehnatkashlar hayotiga "tuhmat" qilgan va tergov organlarida qiynoqlar qoʻllanilayotganini (aynan qanday qiynoqlar qoʻllanilayotganini tasvirlagan). 1962-yil 29-noyabrda jazoga tortilgan, 1964-yil 24-avgustda unga nisbatan jinoyat ishi qayta malakalangan, 1965-yil 1-aprelda reabilitatsiya qilangan.

17. *Ametova S.* (1941-yilda tugʻilgan, oʻrta tibbiyot maʼlumotiga ega, kasalxonada ishlagan, Xorazm viloyatida yashagan), *Bariev A.* (1938-yilda tugʻilgan, maʼlumoti oʻrta, Toshkent viloyati Chirchiq shahrida yashagan), *Xalilova M.* (1945-yilda tugʻilgan, oʻrta tibbiyot maʼlumotiga ega, kasalxonada ishlagan, Toshkent viloyati Bekobod shahrida yashagan), *Eminov R.Ya.* (1939-yilda tugʻilgan, maʼlumoti oʻrta texnik, prorab, Toshkent shahrida yashagan),

*Xayirov I.S.* (1938-yilda tugʻilgan, maʼlumoti tugallanmagan oliy, KPSS aʼzosi, Oʻzbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi chora-tadbirlar qoʻmitasi xodimi), *Yazijiev I.M.* (1920-yilda tugʻilgan, maʼlumoti oʻrta, gʻisht teruvchi, Samarqand viloyati Krasnogvardeysk shahrida yashagan), *Gafarov R.* (1915-yilda tugʻilgan, maʼlumoti 5-sinf, Toshkent viloyati Angren shahrida yashagan), *Bayramov R.* (1943-yilda tugʻilgan, maʼlumoti 9-sinf, ishchi, Zaporozhe viloyati Melitopol shahrida yashagan), *Kadiev R.K.* (1937-yilda tugʻilgan, maʼlumoti oliy, universitet oʻqituvchisi, Samarqand shahrida yashagan), *Umerov R.* (1920-yilda tugʻilgan, 5-sinf taʼlimi, elektr payvandchi, Toshkent shahrida yashagan) ular 1969-yil 5-avgustda qrim tatarlarining vatanga qaytish harakati faollari boʻlganliklari uchun jazoga tortilganlar.

18. *Ismoilov I.* – 1945-yilda tugʻilgan, oʻzbek, ishchi, Fargʻona shahrida yashagan, 1969-yil 2-iyunda oʻzbek siyosiy satira jurnali “Mushtum” tahririyatiga kelib, uning xati boʻyicha qaysi tahririyat tomonidan chora koʻrilganini soʻragan, shu bilan birga millatchilik kayfiyatini ifodalab, Oʻzbekistonda “barcha yaxshi lavozimlarni ruslar egallab olgan, barcha koʻcha va muassasalarning nomlari rus tilida yozilgan <...> respublikada tirik oʻzbeklardan koʻra Leninning haykallari va portretlari koʻproq” deb aytgan. 1969-yil 4-sentabrda jazoga tortilgan.

19. *Abdugʻafurov X.* (1945-yilda tugʻilgan, oʻzbek, maʼlumoti 11-sinf, VLKSM aʼzosi, Sirdaryo oblasti Guliston rayon komsomol qoʻmitasi boʻlim mudiri) *Qoʻchqorxoʻjaev R.* (1943-yilda tugʻilgan, oʻzbek, maʼlumoti oʻrta, VLKSM aʼzosi, maktab xoʻjalik mudiri) 1969-yil yanvar oyida Guliston rayoni Krestyanskoe qishlogʻi hududiga “Oʻzbekiston oʻzbeklar uchun” degan chaqiriq bilan 26 ta varaqa tayyorlab tarqatganlar. Varaqalarni ularning tanishlari oʻqigan va muhokama qilishgan, ularning koʻpchiligi VLKSM aʼzosi va komsomol lavozimlarida ishlagan, ulardan biri varaqani jamoa boʻlib oʻqishni uyushtirgan. 1969-. yil 13-oktabrda jazoga tortilganlar

20. *Garifulina Ye.P.* – 1914-yilda tugʻilgan, rus, maʼlumoti 3-sinf, 1969-yil 11-avgustda Toshkent shahridagi pochta boʻlimi devoriga “Yoʻqolsin rus bosqinchilari, yashasin ozod Oʻzbekiston” deb yozgan.

21. *Husnitdinov F.* (1946-yilda tugʻilgan, oʻzbek, maʼlumoti 10-sinf, “Vodokanal” dispetcheri, Andijon shahrida yashagan) va *Madmarov A.X.* (1943-yilda tugʻilgan, qirgʻiz, VLKSM aʼzosi, maʼlumoti oʻrta, ishlab chiqarish taʼlimi ustasi) 1969-yil may oyida ruslarni Oʻzbekistondan chiqarib yuborishga chaqiruvchi varaqani tarqatishga uringanlar. 1970-yil 29-sentabrda jazoga tortilganlar.

22. *Muxametxanov X.* – 1933-yilda tugʻilgan, tatar, maʼlumoti oʻrta, ishsiz, Qashqadaryo oblasti Qarshi shahrida yashagan, 1970-yil 29-mayda ruslarni Oʻzbekistondan quvib chiqarishga chaqiruvchi oltita varaqa yozgan va ularni yopishtirmoqchi boʻlganida qoʻlga olingan.

23. *Mirabdullaev Mirtemir* – 1940-yilda tugʻilgan, oʻzbek, KPSS aʼzosi, universitetning geografiya fakulteti aspiranti, Toshkent shahrida yashagan, 1967-yildan boshlab suhbatlarda “Oʻzbekiston oʻzbeklar uchun” va shunga oʻxshash fikrlarni bildirgan, 1968-yilda Oʻzbekistondan ruslarni quvib chiqarish uchun kurashish maqsadida “Ozodlik Ittifoqi” yoki “Togʻ va tabiat ishqibozlari” noqonuniy tashkilotini tuzishga uringan, unga uch kishini jalb qilgan. 1971-yil 31-avgustda jazoga tortilgan.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston xalqining sovet davlatidan noroziligi, mustaqillik uchun kurashlari hech qachon toʻxtamagan, bu jarayonlar turli shakl va koʻrinishlarda davom etgan. Sovet davlatining kuch ishlatar tizimlari, xufiyalari qatagʻon siyosati orqali xalqimizning mustaqillik sari olib borayotgan harakatlariga qarshi kurashganlar. Yaʼni Sovet davlatining 1953–1991-yillardagi qatagʻon siyosati Stalin vafotidan keyin ham toʻxtamaganin, balki shaklan oʻzgargan holda tizimli ravishda davom etganini koʻrsatadi. Agar 1930–1940-yillarda qatagʻonlar ommaviy xarakter kasb etgan boʻlsa, keyingi davrda ular asosan “sovetlarga qarshi targʻibot va tashviqot”, “millatchilik”, “diniy faoliyat” kabi ayblovlar orqali huquqiy tus berilgan holda amalga oshirilgan.

Maʼlumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston aholisi orasida milliy mustaqillik gʻoyalarini ilgari surgan, sovet mustamlakachilik siyosatiga tanqidiy munosabat bildirgan, shuningdek diniy eʼtiqod va milliy anʼanalarni himoya qilgan

shaxslar davlat xavfsizlik organlari tomonidan doimiy nazorat ostida bo'lgan. Ushbu shaxslarga nisbatan qo'llanilgan jinoiy jazolar nafaqat alohida shaxslarni, balki butun jamiyatda qo'rquv va itoatkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan edi.

1953–1991-yillardagi qatag'on siyosati O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy o'zlikni anglash jarayonlari va ma'naviy taraqqiyotiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davr qatag'onlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki mustaqil O'zbekistonda totalitar tuzum oqibatlarini anglash va ulardan xulosa chiqarish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://president.uz/uz/lists/view/5478> murojaat sanasi 02.01.2026
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; Таҳрир хайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ./. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.
3. <https://kun.uz/kr/news/2018/03/20/sobik-ittifok-davrida-uzbekiston-mustakilligi-julida-mahfij-taskilot-tuzgan-mirtemir-mirabdullaev-vafot-etdi> murojaat sanasi 02.01.2026
4. 58/10. Надзорные производства Прокуратуры СССР по делам об антисоветской агитации и пропаганде. Март 1953–1991 гг. Аннотированный каталог.” Под ред. В.А. Козлова и С.В. Мироненко; сост. О.В. Эдельман. – Москва: Международный Фонд «Демократия», 1999. – 944 с.